

## AVTOMOBIL YO'LLARINI LOYIHALASH JARAYONIDA CREDO KOMPLEKS DASTURIDAN FOYDALANISH

**Zingirov Saidolim**  
*Andijon mashinasozlik instituti*  
*"Transport vositalari muhandisligi"*  
*kafedrai katta o'qituvchisi*

**Annotatsiya.** Maqolada avtomobil yo'llarini loyihalash jarayonida CREDO kompleks dasturidan foydalanish haqida bayon etilgan. Avtomatlashgan loyihalash tizimi CREDO ALT «CREDO-DIALOG» kompaniyasi (Belorussiya Respublikasi, Minsk shahri) tomonidan ishlab chiqilgan. Uning ahamiyati haqida yozilgan.

**Kalit so'zlar:** «CREDO-DIALOG» kompaniyasi, sun'iy inshootlar, loyihalash avtomobil yo'llari, CREDO-CAD

Tizim avtomobil yo'llarini qurish va rekonstruktsiya qilish loyihalarini ishlab chiqish uchun belgilangan, shu bilan birga boshqa sanoat va fuqoro qurilishi ob'ektlarini texnik qidirish ma'lumotlarini qayta ishlashdan boshlab, loyiha hujjatlarini tayyorlashgacha bo'lgan hamma loyihalash jarayonlarini o'z ichiga qamrab oladi. «CREDO» kompleks dasturi amaldagi mavjud me'yoriy hujjatlar talablariga mos ravishda RF GOSTSTROY qoshidagi sertifikatsiya bo'yicha organi tomonidan sertifikatlangan[1-5].

Avtomobil yo'llarini loyihalash jarayonida loyiha yechimlari variantlarini taqqoslashda qurilish uchun tavsiya etiladigan variantni aniqlash quyidagi gurux ko'rsatkichlar asosida amalga oshiriladi:

1. texnik ko'rsatkichlar: trasa uzunligi, uzayish koeffitsienti, vertikal va gorizontal egrilar radiusi, bo'ylama nishablik, yo'l poyi va qatnov qismining kengligi, asosiy qurilish ishlarining hajmi, yo'l to'shamasining tuzilmasi, sun'iy inshootlarning soni va o'lchamlari, kesishishlar va tutashishlar soni va turi, vaqtinchali va doimiy yo'l uchun ajratilgan joy yuzasi;

2. iqtisodiy ko'rsatkichlar: yo'l va yo'l ayrim inshootlari va elementlari qurilish bahosi;

3. yo'l-transport foydalanish sifat ko'rsatkichlari: yuk va yo'lovchi tashish hajmi, yuk aylanish jadalligi va transport oqimining tarkibi, o'tkazuvchanlik qobiliyati va aloxida yo'l uchastkalarining oqim bilan yuklanganlik koeffitsienti, yakka avtomobil va transport oqimining xarakat tezligi, yo'l tushamasining mustamlik koeffitsienti, ko'rinish cheklangan yo'l uchastkalari uzunligi, sun'iy inshshotlarda ruxsat etilgan yuklar va boshqalar[6-9].

4. harakat xavfsizlik ko'rsatkichi: yo'lning turli uchastkalardagi avariyalik va xavfsizlik ko'rsatkichi, yo'l transport hodisalaridan bo'lishi mumkin bo'lgangan zararlar.

5. Ekologik ko'rsatkichlar: transportdan chiqayotgan shovqin va zaxarli gazlarning darajasi, yo'l yon tasmasiga transportdan chiqayotgan gazlarning va undagi qurg'oshin birikmasining miqdori, atrof manzaraga, hayvonot va o'simlik dunyosiga, tabiiy va madaniy yodgorliklarga yo'lning noxush ta'siri bo'ladigan chegaradagi uchastkalar uzunligi.

6. iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari: kapital mablag'larni iqtisodiy samaradorligi koeffitsienti yoki ularning oqlash muddati, sarflangan xarajatlar yig'indisi.[2-4, 10-14]

Texnik ko'rsatkichlarning sezilarli qismi CREDO kompleks dasturidan foydalanib loyihalashda aniqlaniladi, masalan trassa rejasini, bo'ylama kesimni, yo'l poyini, yo'l tushamasini va sun'iy inshootlarni. Yo'lning transport-ekspluatatsion ko'rsatkichlarini, xarakat xavfsizligini aniqlash uchun CREDO-CAD tizimida «Оценка проектных решений» dasturidan foydalaniladi. Uning yordamida aniqlanilishi mumkin[4-6]:

- yo'l ustki yuzasi ko'rinish masofasi;
- transport oqimi tezligi;
- yakka avtomobil harakat tezligi;
- harakat xavfsizligi;
- avariyalik koeffitsienti;
- avtomobillar yoqilg'i sarfi;
- yuk tashish tan narxi;
- transport oqimi avtomobillari dvigatellaridan chiqadigan zaharli vositalar.

### **Adabiyotlar.**

1. Автомобиллар техник эксплуатасияси. Қайта ишланган ва тўлдирилган 4-нашри. (проф. Е.С. Кузнецов, А.П.Болдин, В.М.Власов ва бошқалар. – М.: Наука, 2004й., Тошкент “VORIS-NASHRIYOT”, 2006. – 630 б.
2. Автомобиллар техник эксплуатасияси. Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта маҳсус таълим вазирлиги автотранспорт олий ўқув юртлари талабалари учун дарслик сифатида тавсия этилган. Проф. Сидикназаров К.М. умумий таҳрири остида, Тошкент “VORIS-NASHRIYOT”, 2008. – 560 б
3. Mamasoliyev B., Melikuziev A., Sotvoldiyev O. Research of Factors Affecting the Cylinder-Porshen Group Work Process //Texas Journal of Engineering and Technology. – 2022. – T. 7. – C. 8-12.
4. Turgunaliyev Elbek “ECONOMIC ANALYSIS OF CARS RUNNING ON GASOLINE AND GAS” Namangan muhandislik-texnologiya instituti ilmiy-texnika jurnali Tom 6 № Maxsus son 2

5. Икромов Н. А., Гиясидинов А. Ш., Рузиматов Б. Р. У. Меры по снижению экологического воздействия автопарка //Universum: технические науки. – 2021. – №. 4-1 (85). – С. 44-47.
6. Xayrullo Raxmonjon o'g'li Odilov Analyze the efficiency of alternative fuels // Science and Education. 2022. №6. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/analyze-the-efficiency-of-alternative-fuels> (дата обращения: 11.10.2022).
7. Melikuziev A. et al. IMPROVING THE PERFORMANCE OF THE FUEL INJECTION SYSTEM //Development and innovations in science. – 2022. – T. 1. – №. 14. – С. 10-14
8. Karimovna M. D. AVTOMOBILSOZLIKDA YONILG'I MUAMMOLARINI O'RGANISH //Journal of new century innovations. – 2022. – Т. 10. – №. 2. – С. 27-34.
10. Nurdinov M., Muqimova D. RECOMMENDATIONS FOR THE DESIGN OF SAFE PARKING SPACES FOR TRAFFIC ACCIDENTS AND TRUCKS //International Bulletin of Applied Science and Technology. – 2022. – Т. 2. – №. 11. – С. 147-155.
11. Kosimova M., Muqimova D., Akramaliyev O. BASING THE PARAMETERS OF CONTACT WELDING COATING OF FORMED POWDERY COMPOSITE TAPE TO THE SURFACE OF A FLAT PART //Евразийский журнал академических исследований. – 2023. – Т. 3. – №. 5 Part 4. – С. 190-195.
12. Muqimova D., Nurdinov M. Compliance with responsibility and work regimes of drivers in legal regulatory documents due to accidents in the transportation of international goods by trucks //Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences. – 2022. – Т. 1. – №. 2. – С. 15-25.
13. Asliddin P. et al. PORSHEN HALQASINING ISHIGA TA'SIR QILUVCHI OMILLAR //Scientific Impulse. – 2023. – Т. 1. – №. 11. – С. 611-620.
14. Omonov F.A., Jo'rayev VI FARG'ONA SHAHAR JAMOAT TRANSPORTI RIVOJLANISHDAGI MUAMMOLAR VA SABAB OLGAN OMILLAR //Yevropa rivojlanayotgan texnologiyalar va kashfiyotlar jurnali. – 2023. – Т. 1. – Yo'q. 2. – 72-75-betlar.